



A NEW STAGE IN DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN

Bozozrov Quvonchbek Dilmurod o'g'li

2-Student History course at the Denau Institute of Entrepreneurship
and Pedagogy.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5500373>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2021
Accepted: 05th September 2021
Online: 10th September 2021

KEY WORDS

*Uzbek people, Uzbekistan,
Tajikistan*

ABSTRACT

The Uzbek and Tajik peoples are united by common history, culture and spiritual values, mutual respect and centuries-old traditions of good neighborliness. It is known that for centuries the fraternal peoples were part of the Turkic Khanate, the Arab Caliphate, the Samanids, the Ghaznavids, the Qarakhanids, the Khorezmshahs, the Temurids, the Shaibani, the Ashtarkhanids, as well as the Russian Empire and the Soviet Union.

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON DIPLOMATIK MUNOSABATLARDA YANGI BOSQICH

Bozozrov Quvonchbek Dilmurod o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 2- kurs tarix yo'nalishi talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-sentabr 2021
Ma'qullandi: 05- sentabr 2021
Chop etildi: 10- sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

*O'zbek xalqining,
O'zbekiston, Tojikiston*

ANNOTATSIYA

Ammo o'sha davrlarda ham o'zbek-tojik O'zbek va tojik xalqlarini umumiy tarix, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, o'zaro hurmat hamda yaxshi qo'shnichilikning ko'p asrlik an'analari birlashtirib turadi. Ma'lumki, o'tgan asrlar davomida qardosh xalqlar Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar kabi xonliklar, shuningdek, Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan.

xalqlari azaliy do'stlik va yaxshi qo'shnichilik an'analarini davom ettirgan holda, o'z yashash tajribasiga ega millatlar sifatida ahil va inoq umr kechirgan. Bu yaqinlik O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi munosabatlar uchun

mustahkam zamin, asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining madaniy merosini tojiklar e'zozlashadi. Tojik madaniyati durdonalari esa o'zbeklar tomonidan hamisha qadrlangan. O'zbeklar va tojiklar



xursandchilikda ham, g'amda ham doimo birga bo'lganlar. Bu ikki tilda so'zlashuvchi bir xalqdir.

Shavkat Mirziyoyev Imomali Rahmon bilan uchrashuvda qayd etganidek, "O'zbekiston va Tojikiston xalqlarini birodarlikning o'ziga xos rishtalari bog'lab turadi. Asrlar mobaynida yonma-yon yashab, ular tarixiy ma'naviy ildizlar, madaniyatlar, an'analar, odatlarning uyg'unligi bilan bog'langan. Ularni bir-biridan ayri holda tasavvur qilishning o'zi ko'ngilni xira qiladi". Bu so'zlarda ikki birodar xalqlarning orzu-istaklari mujassam.

Darhaqiqat, hozirgi kunda ham oldin ham o'zbek -tojik ijodkorlari birga ijod qilib, bir-birining ijodlarini hurmat qilishgan. Yangi O'zbekistonning Tojikiston bilan yangi aloqalari joriy yilning 10-11 iyun kunlari Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Dushanbega qilgan rasmiy tashrifdan so'ng yangi sahifa ochildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu ikki qardosh xalq Markaziy Osiyodagi eng yetakchi davlat bo'lish uchun hamkorlikda harakat qilishmoqda. Rasmiy tashrif chog'ida imzolangan hujjatlar albatta yangi O'zbekiston va Tojikistonning kelajagini yorituvchi bir mayoq bo'lib xizmat qiladi.

Juda ko'plab sohalarda qilinayotgan yangiliklar, investitsiyalar albatta ta'lim va sog'liqni saqlash sohasini ham chetlab o'tgani yo'q albatta. O'zbekiston Tojikistonning Spitamen tumanida O'zbekiston tomonidan qurib bitkazilgan maktab binosini azmu shijoatli yoshlarga topshirilgani bunga yorqin dalil bo'ladi. Tojikiston tomonidan ham Samarqand viloyatida ana shunday maktablar ochildi. O'zbekistonda butun respublika bo'ylab 10 ta tojik milliy madaniy markazini o'zida birlashtirgan Respublika tojik milliy

madaniy markazi muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritmoqda. Ta'lim tojik tilida olib boriladigan 245 ta maktab (ulardan 55 tasida darslar to'laligicha tojikcha tashkil qilingan) ishlayapti. Samarqand, Termiz va Farg'ona universitetlarida darslar tojik tilida o'tiladigan guruhlar mavjud. To'rtta davriy matbuot nashri, beshta teledastur va 30 radiodastur tojik tilida taqdim qilinadi. O'z navbatida, O'zbekiston ham tojik hukumatining etnik o'zbek Tojikiston fuqarolariga teng sharoitlar yaratish, milliy madaniyat va uning o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish bo'yicha harakatlarini qadrlaydi.

2020- yilda butun dunyo pandemiyadan aziyat chekdi. Iqtisodiyoti keskin kamayib ishsizlik darajasi oshdi. Ayrim davlatlar uchun bu juda katta o'tish davri bo'ldi. Pandemiya bilan bog'liq murakkab sharoitda O'zbekiston va Tojikiston koronavirus oqibatlarini yengib o'tishda o'zaro birdamlik ko'rsatib, bir-biriga yelkadosh bo'ldi. Shunday vaziyatda ikki qardosh xalq bir-biriga o'z mehrlarini ayamagan holda o'z gumanitar va insonparvarlik yordamlarini jo'natishdi. Bularning barchasi albatta yangi O'zbekistonning yangicha ruhdagi qo'shnichilik munosabatlaridan dalolat beradi albatta. Arzimasdek ko'ringan ushbu insonparvarlik yordami tushkunlik paytida tog'dek dalda bo'ladi. Bu qadriyatlarimiz bizga juda qadimdan avloddan-avlodga qon qonimizga singib kelmoqda. Bugungi kunda ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar kabi qator sohalardagi aloqalarni kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yo'li ochilmoqda. Shu munosabat bilan, yuzaga keladigan voqeiklarni anglash,



hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va aniq natijalarga erishish o'ta muhim sanaladi.

Yana shunisi ahamiyatliki, 2017 yildan buyon ikki mamlakat rahbarlari o'rtasida 8 marotaba ikki tomonlama uchrashuvlar bo'lib o'tdi, Ikki davlat rahbarlari xalqaro doiradagi tadbirlarda ishtirok etdi.

Iqtisodiy sohadagi yutuqlar ham bu ikki davlat o'rtasida oxirgi uch yilga nisbatan og'ir pandemiya davrida 500 million dollarni tashkil etganligini Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev iyun oyidagi rasmiy tashrif chog'ida bunga alohida to'xtalib o'tdi. Bu hamkorlik davomidagi eng yuqori ko'rsatgich, avvallari bu ko'rsatgich 100 million dollarni ham tashkil qilmas edi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Tojikiston suv-energetika resurslaridan mintaqa mamlakatlari manfaatlarini bilan hisoblashgan holda oqilona va tenglik asosida foydalanish zarurati haqida bir to'xtamga keldi. Xorijiy ekspertlar qayd etganidek, ushbu yo'nalishdagi o'zbek-tojik munosabatlarining konstruktiv xarakteri Markaziy Osiyoda suv xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy harakatlarga faollashtiruvchi ta'sir etishi mumkin.

O'zbekiston – Tojikiston hamkorligining huquqiy asosini shu

paytgacha imzolangan turli darajadagi 165 ta hujjat tashkil etadi. Ular orasida, ayniqsa, "Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma» (17.08.2018 y, Toshkent) va "Abadiy do'stlik shartnomasi" (2000 yil 15 iyun, Dushanbe) ahamiyatlidir. Ma'lumotlarga qaraganda, 1991 yildan buyon ikki mamlakat parlamentlari vakillarining 20 dan ortiq o'zaro tashriflari amalga oshirilgan. Tojikiston Respublikasi Majlisi Oliy bilan hamkorlik qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining parlamentlararo guruhlarini tuzilgan.

O'zbekiston parlamenti vakillari MDH va SHHT missiyalarida xalqaro kuzatuvchi sifatida Tojikistonda o'tgan parlament (2010-2020 yillar) va prezidentlik (1994, 1999, 2013 va 2020 yillar) saylovlarida faol ishtirok etdi.

O'zbekiston bilan Tojikiston yaqin hamkor mamlakatlar sifatida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham bir-birining tashabbuslarini doimo qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston 2017-2019 yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashiga Tojikiston nomzodini qo'llab-quvvatlagan. Bu ikki qardosh millat xalqaro tashkilotlarda ham faol ishtirok etib mintaqada tinchlik tarafdori ekanligini ochiq oydin aytishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtiyor MUSTAFOYEV O'zbekiston — Tojikiston: strategik hamkorlik yo'lida
2. Vikipediya